

MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA TARBIYA FANI O'QITUVCHILARNING MOSLASHUVCHANLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Sayyora To'rayeva

Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi

Annotatsiya:

Bugungi zamonaviy innovatsiya davrida ta'lim-tarbiyaning sifat va samaradorligi uchun mas'ul bo'lgan o'qituvchilarning innovatsion faoliyat yuritishlari muhim hisoblanadi. Zero, jahon sivilizatsiyasi davri hozirgi avlodni an'anaviy pedagogik nazariyalar bilan emas, balki yangilangan o'quv-tarbiya tizimi asosida tarbiyalashni nazarda tutadi. Shu bois maktabgacha ta'limdan to malaka oshirishgacha bo'lgan barcha o'quv-tarbiya tizimini yangilash va takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Kalit so'zlar: tarbiya, fan, moslashuv, kompetensiya, rivojlantirish, pedagogik, psixologik, kasbiy.

Kirish. Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida malaka oshirish tizimi tinglovchilarining moslashuvchanlik kompetensiyalarini rivojlantirish, malaka oshirish jarayoniga sinxronli modellarni joriy etish, o'qitishning psixologik, andragogik xossalarini takomillashtirish, masofaviy ta'limda o'quv-bilish faoliyatini boshqarish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda.

Tarbiya fani O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 2020-2021-o'quv yilidan boshlab joriy qilindi. Ushbu fan Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining bir qismi sifatida o'quvchilarda "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasini singdirish, ularni ijtimoiy muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash, faol fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan. Bu maqsad va vazifalarni hal qilishda malaka oshirish kurslarning o'quv-metodik resurslarini ishlab chiqish va ularni innovatsion yondashuv asosida takomillashtirish, pedagogik shart-sharoitlar yaratish va o'qitishning sifat va samaradorligini oshirishda aralash ta'lim (Blended Learning) texnologiyalarini qo'llash dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 dekabrda "Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1026-sonli qarorining 4-ilovasi bilan tasdiqlangan "Maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning

malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi”da “qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari uchun o‘quv reja va fan dasturlarini tasdiqlash hamda uning o‘quv-metodik ta’minoti yaratilishini ta’minlash” vazifasi qo‘yilgan [3]. Ushbu bo‘limda o‘qituvchilar faoliyatida moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish kompetentligini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan turli tadqiqot ishlarining nazariy tahlili keltirilgan va tadqiqotimiz uchun muhim bo‘lgan mazkur tushuncha mazmun-mohiyatini ochib berishga yordam beruvchi qoidalar aniqlab olingan. Ular asosida tadqiqotimiz uchun muhim bo‘lgan o‘qituvchilarning malaka oshirish jarayonida moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni va tarkibiy qismlari ko‘rib chiqildi.

Tahlil va natijalar. Pedagogik mahoratning barcha tarkibiy qismlarini shakllantirish va rivojlantirish, kasbiy kompetentlik darajasiga erishish tarbiya fani o‘qituvchi shaxsining moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida amalga oshiriladi.

Tarbiya fani o‘qituvchining moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni – uzluksiz, ongli, maqsadli ravishda ijodiy, shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirish hamda muhim kasbiy fazilatlarni rivojlantirish, shuningdek, pedagogik mahorat, tajriba, kasbiy bilim va ko‘nikmalarining kasbiy darajasini oshirishga qaratilgan[[1]. Moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirishning asosiy xususiyatlari: aksiologik yo‘nalishlar, moslashuvchanlikni xis qilish, motivatsion va irodaviy komponentlar, maqsadni belgilashdan iborat. Ular moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish yo‘nalishi va dinamikasini belgilaydi, tarbiya fani o‘qituvchilarning o‘zini mustaqil faoliyatini tashkil etishga imkon beradi. Adabiyotlarning ilmiy tahlili “moslashuvchanlik kompetensiyasini” tushunchalar asosidan kelib chiqqan “kasbiy faoliyatda moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish kompetentligini takomillashtirish malakalari” tushunchasi mazmun-mohiyatini aniqlab olishga imkon berdi[2].

Bugungi kunda ta’limni modernizatsiyalashning asosiy omillaridan biri sifatida o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy salohiyatini rivojlantirish jarayoni hisoblanadi. Tarbiya fani o‘qituvchilar tomonidan ta’lim sohasini yangilash, maqsad va mazmunini tushunish hamda qabul qilish uchun shart-sharoitlarni yaratish, tarbiya fani o‘qituvchining mustaqil, shaxsiy ahamiyatga ega kasbiy rivojlanish jarayoniga kiritilishi ta’lim tizimining asosiy o‘zgarish mexanizmiga aylanadi.

Tarbiya fani o‘qituvchining eng muhim vazifasi bu o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirish hisoblanadi. Lekin faqat moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish kompetentligiga ega o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchini to‘liq rivojlantira oladi. Amaliyotda o‘qituvchining kasbiy moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni zarur psixologik-pedagogik yordamsiz amalga oshirilmaydi, chunki tarbiya fani o‘qituvchi tegishli

vositagalarga ega emas va mustaqil ravishda malaka oshirish shart-sharoitlarini tashkil eta olmaydi.

Moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish mazmuni malaka oshirish va qayta tayyorlash orqali bilish faoliyatini qondirishda, tarbiya fani o'qituvchining moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlanishini o'sib borishida ifodalanadi. Malaka oshirishga oid pedagogik tadqiqotlarda moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish kasbiy rivojlanishning faol shakllaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni boshqa ta'lim jarayonlariga nisbatan samarali hisoblanadi, chunki o'z bilimlari, kashfiyotlari, xatolari orqali mustaqil ravishda olingan bilim va tajribalarni rivojlantirish jarayonida shaxs har tomonlama takomillashib boradi[3].

Tarbiya fani o'qituvchining moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni turli darajalar bilan tavsiflanishi mumkin:

– birinchi daraja (past moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish) – tarbiya fani o'qituvchi o'zining kasbiy faoliyatiga ijobiy munosabatda bo'lib, o'z faoliyatidan qoniqadi[8-14]. Bu bosqichda tarbiya fani o'qituvchida moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish uchun ichki motivatsiyasi juda past darajada bo'ladi; u o'zini o'zi tahlil va tashxis qilish hamda o'z kasbiy faoliyati va uning natijalarini baholashga ehtiyoj sezmaydi; kasbiy vazifalarini asosan, standartga muvofiq amalga oshiradi; psixologik-pedagogik bilimlardan shaxsiy va kasbiy rivojlanish vositasi sifatida foydalanmaydi[4].

– ikkinchi daraja (yetarli darajada moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish) – tarbiya fani o'qituvchi tomonidan o'z o'quv faoliyatining shaxsiy ahamiyatini yuqori baholash va moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish zarurligini namoyon etish bilan ajralib turadi; maqsadlarni nisbatan aniq belgilaydi; moslashuvchanlik faoliyatida baholash qobiliyatini qo'llaydi; o'zini faoliyati va shaxsiga o'zgartirish kiritish maqsadida diagnostik usullardan foydalana oladi;

– uchinchi daraja (yuqori darajadagi moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish) – tarbiya fani o'qituvchi pedagogik faoliyatni qadriyat sifatida qabul qiladi va moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini amalga oshiradi; tarbiya fani o'qituvchi moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirishni shaxsan muhim va qadr-qimmatga yo'naltirilgan munosabat sifatida tan oladi va qabul qiladi; moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish muhimligini anglaydi; o'z hayotiy faoliyati uchun subyekt pozitsiyasi doirasida moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmi va mazmuniga ega; moslashuvchanlik kompetensiyasini anglash va o'z ish tajribasi, kasbiy, shaxsiy fazilatlarini tanqidiy baholash uchun bir qator usullardan foydalana oladi; o'ziga va faoliyatiga subyektiv baho bera oladi; moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirishning maqsad va vazifalarini mustaqil va oqilona shakllantira oladi; moslashuvchanlik kompetensiyasini refleksiylash

asosida o'z shaxsiyatini va kasbiy faoliyatini loyihalashtirishga oladi; moslashuvchanlikda ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga qodir[5].

Moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida tarbiya fani o'qituvchi turli xil axborot manbalaridan foydalanishi mumkin: adabiyotni o'rganish, teleko'rsatuvlarni yoki video roliklarni tomosha qilish, malaka oshirish kurslarini o'tash, seminarlar va konferensiyalarda ishtirok etish, hamkasblar bilan tajriba almashish va h.k. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish shartlarini o'zgartiradi. Maxsus aloqa dasturlari orqali onlayn ravishda muloqot qilish, suhbatlar, forumlar, master-klasslar, tematik videokonferensiyalar, seminarlarda ishtirok etish imkoniyatlari bilan internet tarmog'i moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish masalalarini hal qilishda tarbiya fani o'qituvchilarning virtual birlashishiga yordam beradi[6]. Har bir tarbiya fani o'qituvchining moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish uchun o'ziga xos ehtiyojlari mavjud, chunki ular turli omillar ta'sirida: shaxs tuzilishi, qiziqishlari, ilmiy, psixologik, pedagogik va maxsus tayyorgarlik, umumta'lim darajasi; pedagogik tajriba, rivojlanish darajasi va boshqalar shakllanadi.

Xulosa. Tarbiya fani o'qituvchining moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligi quyidagi psixologik va pedagogik jarayonlarga bog'liq: shaxsning moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish ehtiyoji bajarilsa, tarbiya fani o'qituvchi o'zini baholay olsa, moslashuvchanlik ko'effitsiyentini bilishi va moslashuvchanlik kompetensiyasini tahlil qilish usullariga ega bo'lsa, o'zgarishlarga tayyor bo'lsa, o'z harakatlarini, his-tuyg'ularini tushunishga va faoliyatini tahlil qilishga qaratilgan, refleksiv qobiliyatiga ega bo'lsa. Umumiy ta'lim, ilmiy, psixologik, pedagogik va metodik yo'nalishlarni o'z ichiga olgan o'zini o'zi rivojlantirish dasturlari ham muhim ahamiyatga ega[7].

Masofaviy ta'lim orqali mustaqil ta'lim olishning nazariy masalalari muammosi yuzasidan A.D.Asqarov, U.Begimkulov, A.E.Ibraymov, N.Muslimov larning tadqiqot ishlarida ko'rib chiqilgan. Jumladan, U.SH.Begimkulov pedagog kadrlarning masofadan malaka oshirishlari mazmuni va metodik asoslarini ishlab chiqdi, malaka oshirish jarayonlari uzluksizligi va uzviyligini ko'zda tutuvchi axborot texnologiyalari tizimini shakllantirdi. N.A.Muslimov ishida masofaviy ta'limning maqsadga muvofiq modelini tanlash, o'quv materiallari to'plamini tayyorlash, moddiy-texnik jihatdan ta'minlash, rejalashtirish va uni tashkil etish masalalari tadqiq etildi.

ADABIYOTLAR:

1. Ачилов, Н. А. (2019). Просветительские взгляды Аль-Хакима ат-Термези. Педагогическое образование и наука, (5), 16-19.
2. Achilov, N. THE GREAT TEACHER. SCIENTIST, THE OWNER OF ENCYCLOPEDIA KNOWLEDGE.
3. Abdugafforovich, A. N. (2019). Scientific theory of al-khakim at-termezi. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.
4. Ачилов, Н. А. (2018). Влияние учения Аль-Хакима Ат-Тирмизи в идейном наследии мыслителей influence of the teaching of al-hakim at-tirmisi in the ideal heritage of thinkers. Журнал выпускается ежемесячно, публикует статьи по гуманитарным наукам. Подробнее на, 70.
5. Холмуротова, Ш. М. (2022). АЁЛЛАР ДЕВИАНТ ХУЛҚ-АТВОРИНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ ДИАГНОСТИКАСИ. Science and innovation, 1(B3), 129-133.
6. Холмуротова, Ш. М., & Алмардонова, Г. Т. Қ. (2022). ҚИЗЛАРНИ МУСТАҚИЛ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ШАКЛ, МЕТОД ВА ВОСИТАЛАРИ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(11), 375-383.
7. Холмуротова, Ш. М. (2022). АЁЛЛАРДА ДЕВИАНТ ХУЛҚ-АТВОР ХУСУСИЯТЛАРИ ПСИХОПРОФИЛАКТИКАСИДА ДИНИЙ БИЛИМЛАРНИ ҚЎЛЛАШ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(6), 286-294.
8. Холмуротова, Ш. М. (2021). ЗНАЧЕНИЕ РЕЛИГИОЗНЫХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ ЛИЧНОСТИ В ДУХОВНОМ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ. European science, (3 (59)), 60-63.
9. Holmurotova, S., & Adilova, S. (2022). ERIK BERNNING TRANZAKSION TAHLILIDAN TUZILMAVIY TAXLIL. Science and innovation, 1(B8), 391-393.
10. Nurkulova, G. (2022). THE PSYCHOLOGY OF SUBORDINATE BEHAVIOR. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(12), 204-207.
11. Sharafutdinova, K. G., Kulmamatova, F. K., & Haydarova, S. (2021). The role of cognitive psychology in the elimination of destructive behavior. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(4), 957-964.
12. Haydarova, S. (2020). Teaching English with interesting activities. The Scientific Heritage, (55-4), 3-4.

-
13. Haydarova, S. (2022). An TEACHING ENGLISH WITH INTERESTING ACTIVITIES. Tadulako Science and Technology Journal, 3(1), 42-44.
14. SALAMOVA, N. A. (2021). IMAGES AND THEMES OF THE LITERATURE OF ANCIENT RUSSIA IN THE WORKS OF NS LESKOV. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 430-432.